

TA`LIM JARAYONIDA YANGI METOD VA USLUBLARNING ROLI**Tuxtamatova Dilnoza Abdusalamovna**

Toshkent viloyati Bo`stonliq tumani 5-maktab o`qituvchisi.

*E-mail: tuxtamatovadilnoza@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11115674>*

Annotatsiya. Ushbu maqola mablag'i yoshidagi bolalarning xotirasi va xotirani mustahkamlashda inovatsion texnologiyalarning ahamiyati haqida keltirilgan.

Kalit so`zlar: xotira, ixtiyorli va ixtiyorsiz eslab qolish, inovatsion texnologiyalar, ko`z xotirasi, eshitish xotirasi, ushlab ko`rish xotirasi.

THE ROLE OF NEW METHODS AND STYLES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article is about the importance of innovative technologies in memory and memory enhancement of school-aged children.

Key words: memory, voluntary and involuntary recall, innovative technologies, eye memory, auditory memory, visual memory.

РОЛЬ НОВЫХ МЕТОДОВ И СТИЛЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье речь идет о значении инновационных технологий в памяти и совершенствовании памяти детей школьного возраста.

Ключевые слова: память, произвольное и непроизвольное припоминание, инновационные технологии, глазная память, слуховая память, зрительная память.

Innovatsion texnologiyalar ta'limga taraqqiyotida tutgan roli juda katta. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'limga tizimining qaydarajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta'limga tizimini isloq qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ungailg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'limga samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ma'lumki, uzlusizlik va uzviylik ta'limga tizimda, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi [1].

Ma'lumki, tashqi va ichki muhit ta'sirida markaziy nerv sistemasida, xususan, bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining nerv hujayralarida, oliv nerv markazlarida qo'zg'alish paydo bo'ladi. Bu qo'zg'alish ma'lum vaqtadan keyin so'nadi, lekin uning izi qoladi. Ana shu nerv markazlarida qolgan ta'sir izi xotira deb ataladi. Demak, xotira turli voqealarning odam ko'rgan-kechirganlarining, bajarilgan ishlarning ma'lum vaqt davomida eslab qolinishidir. Xotira qisqa va uzoq muddatli bo'ladi. Qisqa muddatli xotirada ta'sirning izi juda oz vaqt davomida saqlanadi. Bir vaqtning o'zida odam yettitagacha har xil ta'sirotni qisqa muddat davomida eslab qolishi mumkin.

Albatta, bunda har bir odam nerv sistemasining individual xususiyatlari, tajribasi, malakasi kabilalar muhim rol o'ynaydi. Uzoq muddatli xotirada ta'sirning izi miya hujayralarida uzoq muddat davomida, ba'zilari umr bo'yи saqlanadi. Sodir bo'lgan voqealarning eslab qolinishi ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'ladi. Bundan tashqari, har bir ta'sir (axborot, voqeа) qancha ko'p takrorlansa, shuncha uzoq vaqt esda qoladi. Shu bilan birga, har bir odam nerv sistemasining xususiyatlariga ko'ra, voqealarni eslab qolishi har xil bo'ladi [2].

Hozirda dars jarayonlarini oddiy eskirgan usulda o'tish u qadar yaxshi natija bermayapti.

Shu maqsadda dars jarayonida yangi inovatsion texnologiyalarini qo'llagan holda bolalarning eslab qolish qobiliyati kuchaytirilmoqda. Ilgari dars jarayonlari doska, o'quv darsliklari bilan o'tilgan bo`lsa, hozirda bolalarning sezgi a`zolariga ta`sir qilgan holda o'tilmoqda.

Ya`ni eshitish, ko`rish, ushlab ko`rish singari jarayonlarni ta`lim jarayonida bir vaqtning o'zida amalga oshirilmoqda. Buning natijasida bolalarning o'tilgan mavzuni yaxshi eslab qolishi kuzatildi.

Olimlarning aniqlashicha bolalar ko`rish orqali narsa, buyum va hodisalarini 90 % qismi eslab qoladi [3]. Shu maqsadda dars jarayonida bolalarga mavzu doirasida yangi video roliklar yoki mavzuga oid multfilmlar qo'yib berish bolalar hotirasini oshirib, uni mustahkamlashga yordam beradi.

Eshitish orqali esa bolalar ma'lumotlarning 50% ga eslab qolishi aniqlangan. Ushlab ko`rish orqali esa 80-85% gacha ma'lumotlarni bola hotirasida saqlab qoladi [3]. Shuni inobatga olgan holda hozirda har bir o'quv honasida tirik tabiat burchagi tashkil etilmoqda. Bu burchakda bolalar gullarni parvarishlashni, mayda jonivorlarga qarashni o'rganadilar. Bolalarga tabiatga bo`lgan mehrni oshirish esa bollarning injiqlik qilishlarini kamayishini, ma'suliyatli bo`lishlarini ta`minlab beradi.

Maktab yoshidagi bolalarda xotiraning yaxshi bo'lishi juda muhim. Yaxshi xotira bolalarga darslarni yaxshi o'zlashtirishga hamda kelajakda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Bolalar xotirasini yaxshilashda bir qancha metod va uslublardan foydalanish ham ijobjiy natija bermoqda. Aytaylik, yangilik kashf etish orqali o'rganish (evristik) usulida o'quvchilarning

egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o‘z-o‘zlarini rag‘batlantirish orqali bilim va ko‘nikmalar to‘plashlariga sharoit yaratiladi. Metodning asosiy tamoyillari quyidagilari bilan ahamiyatli. Birinchidan o‘rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi, shuningdek, o‘rganish jarayoni ma’lum bir topshiriqqa yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu metod tayanch ma’lumot olish uchun asosdir. O‘quvchi uchun notanish bo‘lgan ma’lumotga chuqur kirib borishiga undaydi. Oldindan aniqlangan va o‘rganishga asoslangan natijalar tahlil qilinib, muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivasiyasiga asoslanadi. Guruhdagi hamkorlikda esa fikr va faoliyatni rag‘batlantiradi, mushohadaga chorlaydi, guruh ichida ikki tomonlama fikr-mulohazalar berib boriladi. Bundan tashqari, shaxs yoki guruhnинг ehtiyojidan kelib chiqqan holda o‘qituvchining qo‘sajak hissasiga ajratilgan vaqt chegarali. SHuningdek, o‘qituvchi asosan o‘qish jarayonini engillashtiruvchi va ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta’minlovchi shaxs vazifasini o‘taydi. Kamdan-kam hollarda o‘qituvchi ma’lumot bilan ta’minlaydi [4]

Shuningdek xotira mustahkamligiga to`g`ri kun tartibiga rioya etish ham o`z ta`sirini ko`rsatadi. Olimlar aniqlashicha maktab yoshidagi bolalarning kunlik uyqu me`yori 10 soatdan kam bo`lmasligi zarur [2]. Maktab yoshidagi bolalar dars vaqtida ma`lumotlarning 60 – 70 % gacha qismini o`zlashtirishi aniqlangan. O`tilgan mavzuni uyda takrorlash va qo`shimcha vazifalarni bajarish orqali esa ma`lumotlar bola hotirasida 80-90 % gacha saqlanadi. Agarda bola hafta yakunida barcha o`rgangan ma`lumotlarini qayta takrorlasa uning hotirasi ma`lumotlar bir umirga muhrlanib qoladi.

Xulosa

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda ta`lim tizimidagi yangi metod va uslublar bolalar hotirasini mustahkamlshga yordam berib, hotira davomli va uzoq muddatli bo`lishini ta`minlab beradi. Shu sababli inovatsion texnologiyalarva yangi metodlar ta`lim jarayonini ajralmas qismi desak adashmagan bo`lamiz.

REFERENCES

1. <https://www.tdpu.uz/page/innovatsion-texnologiyalar>
2. Ochilov M.O. “Muallim qalb me’mori” O‘qituvchi nashriyoti Toshkent – 2001 yil .
3. Arziqulov R. “Sog`lom turmush tarzi asoslari” Davlat ilmiy nashriyoti T o sh k e n t— 2009 yil
4. Saidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” O‘z MU.nashriyoti Toshkent – 2003 yil.
5. Saidahmedov N. “Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash texnologiyalari ” Toshkent: 2000 yil.